



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	



NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Odilova Malika Abdushukur qizi

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: odilovamalika147@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Namangan viloyati qurilish materiallari sanoatida modernizatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ularning iqtisodiy ahamiyati va hududiy rivojlanishga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot IMRAT metodologiyasi asosida olib borilib, statistik ma'lumotlar, tahliliy jadval va grafiklar orqali asoslab beriladi. Natijalarda investitsiyalar, mehnat resurslari, energiya samaradorligi, xomashyo bazasi va institutsional muhit modernizatsiyaning hal qiluvchi omillari sifatida aniqlanadi.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, modernizatsiya, investitsiya, Namangan viloyati, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract. Abstract: This article analyzes the main factors influencing the modernization processes in the building materials industry of Namangan region, their economic significance and impact on regional development on a scientific basis. The study is conducted based on the IMRAT methodology and is substantiated by statistical data, analytical tables and graphs. The results reveal that investments, labor resources, energy efficiency, raw material base and institutional environment are the decisive factors of modernization.

Key words: building materials industry, modernization, investment, Namangan region, economic efficiency.

Аннотация. В данной статье на научной основе анализируются основные факторы, влияющие на процессы модернизации в строительной отрасли Наманганской области, их экономическое значение и воздействие на региональное развитие. Исследование проведено на основе методологии ИМРАТ и подкреплено статистическими данными, аналитическими таблицами и графиками. Результаты показывают, что решающими факторами модернизации являются инвестиции, трудовые ресурсы, энергоэффективность, сырьевая база и институциональная среда.

Ключевые слова: строительная отрасль, модернизация, инвестиции, Наманганская область, экономическая эффективность.

KIRISH

Qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo'lib, infratuzilma obyektlari, uy-joy qurilishi hamda sanoat loyihalarining uzluksiz amalga oshirilishini ta'minlaydigan asosiy xomashyo va tayyor mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Mazkur tarmoqning rivojlanish darajasi nafaqat qurilish sohasining barqaror faoliyatiga, balki hududiy iqtisodiy o'sish sur'atlari, bandlik darajasi va investitsion faollikning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish masalasi mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Modernizatsiya sanoat tarmoqlarida texnologik samaradorlikni oshirish, energiya va resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda mahsulot sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazishga qaratilgan tizimli jarayon hisoblanadi. Davlat tomonidan qabul qilingan qator strategik qarorlar va farmonlarda sanoatni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatlarda, xususan, qurilish materiallari ishlab chiqarishni kengaytirish, import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ulushini oshirish, shuningdek, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.



Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va demografik o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hududlardan biri bo'lib, bu holat qurilish ishlari hajmining izchil oshib borishiga sabab bo'lmoqda. So'nggi yillarda viloyatda uy-joy qurilishi, ijtimoiy infratuzilma obyektlari va ishlab chiqarish majmualari barpo etilishi faollashgan. Natijada qurilish materiallariga bo'lgan ichki talab keskin oshib, mazkur tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ularning ishlab chiqarish hajmi kengayib bormoqda. 2024-yilda viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmining o'sishi va bu jarayonda kichik va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorning sezilarli ulushi mavjudligi hududiy iqtisodiyotda mazkur tarmoqning muhim o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qaror va farmonlar Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlar faoliyatini jonlantirishga xizmat qilmoqda. Biroq amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining muayyan qismi eskirgan texnologiyalar asosida ishlamoqda, bu esa mahsulot tannarxining yuqori bo'lishiga, energiya sarfining ortishiga va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish va investitsiyalarni aynan texnologik yangilanishga yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy ahamiyati faqat ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan cheklanmaydi. Ushbu jarayonlar mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya va resurs tejamliligini ta'minlash hamda ekologik barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Davlat strategik hujjatlarida belgilangan "yashil iqtisodiyot" tamoyillari doirasida qurilish materiallari sanoatida energiya tejamlor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash va tashqi bozorlarda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Namangan viloyati misolida qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish hududiy rivojlanish siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mamlakat miqyosida qabul qilingan iqtisodiy islohotlar va sanoatni rivojlantirishga qaratilgan farmonlar hududlar kesimida differensial yondashuvni talab etadi. Bu esa viloyatning xomashyo bazasi, mehnat resurslari, logistika imkoniyatlari va ichki bozor talabini hisobga olgan holda modernizatsiya strategiyasini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Shu bois mazkur maqolada Namangan viloyati misolida qurilish materiallari sanoatida modernizatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan investitsiyalar, texnologik yangilanish, mehnat resurslari sifati, energiya samaradorligi va institutsional muhitning iqtisodiy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari hududiy investitsion siyosatni takomillashtirish, sanoat modernizatsiyasini jadallashtirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qilishi bilan amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlar modernizatsiyani "sanoat ichidagi o'zgarishlarni boshqarish" nuqtai nazaridan ko'rib, texnologik yangilanish, tashkilot ichidagi jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion boshqaruvni asosiy harakatlantiruvchi omillar deb biladi. Adabiyotlarda o'zgarishni boshqarish (change management) modernizatsiyaning muvaffaqiyatini belgilaydigan omil sifatida katta e'tibor olgan[1].

J.Antonio va Sánchez-Garrido[2] so'nggi umumiy tahlillar raqamlashtirish, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirish (masalan, AI va IoT) qurilish materiallari ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi — bu operatsion xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot sifatini barqaror yaxshilaydi- deb ta'kidlashadi.

Energiya intensiv sanoatlar — xususan tsement va betonga asoslangan ishlab chiqarish — karbon chiqindilarini kamaytirish bo'yicha global muammolarga duch keladi[3]. Yangi izlanishlar energiya tejamlor materiallar (aerogellardan tortib, bio-simobgacha) va ishlab chiqarish protsesslarida CCUS (carbon capture) hamda yonilg'i almashtirish usullariga e'tibor qaratadi. Bu yangiliklar tannarx va atrof-muhit yukini kamaytirishi mumkin[4].

Mahalliy tadqiqotlar mamlakatda mavjud xomashyo zaxiralari, past ishlab chiqarish darajasi va texnologik eskirganlikni ko'pincha qayd etadi; lekin hamkorlikdagi investitsiyalar va davlat dasturlari sanoatni modernizatsiyaga yo'naltirish imkoniyatlarini yaratmoqda. Mahalliy ilmiy maqolalar mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirishni taklif qiladi[5].

Namangan misolida so'nggi yillarda yirik investitsiyalar va loyihalar e'lon qilinishi hududiy sanoatni rivojlantirish imkoniyatlarini oshirmoqda; shu bilan birga hududdagi ko'plab kichik ishlab chiqaruvchilar texnologik yangilanishni talab qiladi. Lokal tahlillar logistika cheklovlari va kichik korxonalar tuzilmasi modernizatsiyani sekinlashtiruvchi omil ekanligini ko'rsatadi[6].

O'zbek olimlari va tahlilchilari innovatsion boshqaruv mexanizmlarini, klasterlash va davlat-xususiy sheriklik modelini joriy etish orqali sanoatni modernizatsiyaga jalb qilish mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va kredit-moliyaviy qo'llab-quvvatlashni muhim element deb ko'radi[7].



Umuman olganda, xorijiy va mahalliy adabiyotlar qurilish materiallari sanoatining modernizatsiya jarayonlari ko'p o'lchovli va o'zaro bog'liq omillar (texnologiya, energiya, xomashyo, institutsional qo'llab-quvvatlash, kadrlar) orqali amalga oshirishini ko'rsatadi. Namangan viloyati kabi hududlar uchun eng samarali yondashuv — global yutuqlarni (raqamlashtirish, energiya samaradorligi, yangi materiallar) mahalliy resurslar va siyosiy imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qurilish materiallari sanoatida modernizatsiya jarayonlarining nazariy asoslarini o'rganish, ularning amaliy mexanizmlarini tahlil qilish, ta'sirlarni diagnostika qilish hamda sohani rivojlanish barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan kompleks ilmiy yondashuvlardan iborat. Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar qurilish sohasining iqtisodiy salohiyati, institutsional omillar va davlat boshqaruvi mexanizmlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyatida qurilish materiallari sanoati hududiy iqtisodiyotning tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda viloyatda qurilish ishlari hajmining ortib borishi mazkur tarmoqqa bo'lgan talabni kuchaytirib, ishlab chiqarish hajmlarining o'sishiga turtki bo'ldi. Statistik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi mutanosib ravishda oshib borgan bo'lsa-da, mazkur o'sish asosan ekstensiv omillar – yangi subyektlarning ishga tushirilishi va ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi hisobiga ta'minlangan.

Biroq chuqur tahlillar mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining muhim qismi texnologik jihatdan eskirganligini, energiya sarfining yuqoriligini va ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion yondashuvlar yetarli darajada joriy etilmaganligini ko'rsatadi. Bu holat mahsulot tannarxining nisbatan yuqori bo'lishiga va raqobatbardoshlikning cheklanishiga olib kelmoqda (1-jadval).

1-jadval. Namangan viloyatida qurilish ishlari va qurilish materiallari ishlab chiqarish dinamikasi (2020–2024-yillar)

Yil	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Qurilish materiallari ishlab chiqarish, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
2020	6850	1240	-
2021	7930	1420	14,5
2022	9480	1690	19,0
2023	11250	2030	20,1
2024	13100	2420	19,2

manba: muallif ishlanmasi

1-jadvalda Namangan viloyatida 2020–2024-yillar davomida qurilish ishlari hajmi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining dinamikasi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari hududda qurilish sohasi va unga xizmat qiluvchi qurilish materiallari sanoati o'rtasida uzviy va o'zaro bog'liq rivojlanish jarayoni mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, qurilish ishlari hajmi 2020-yildagi 6 850 mlrd so'mdan 2024-yilda 13 100 mlrd so'mga yetib, tahlil qilinayotgan davrda deyarli ikki baravar oshgan. Ushbu o'sish hududda uy-joy qurilishi, ijtimoiy infratuzilma obyektlari va ishlab chiqarish binolariga bo'lgan talabning ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Qurilish hajmining barqaror o'sishi hududiy iqtisodiyotda investitsion faollikning kuchayganidan dalolat beradi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi ham tahlil qilinayotgan davrda izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2020-yildagi 1 240 mlrd so'mdan 2024-yilda 2 420 mlrd so'mga yetgan. Ushbu ko'rsatkichning qariyb ikki baravarga oshishi qurilish ishlari hajmining kengayishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ichki bozor talabining ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish hajmidagi o'sish sur'atlari qurilish ishlariga nisbatan nisbatan pastroq bo'lib, bu ayrim materiallar bo'yicha tashqi hududlardan yetkazib berish saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

O'sish sur'atlari dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2023-yillar davomida qurilish materiallari ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari bosqichma-bosqich tezlashib, 2023-yilda eng yuqori darajaga – 20,1 foizga yetgan. Bu davrda ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangi subyektlarning ishga tushirilishi muhim rol o'ynagan. 2024-yilda o'sish sur'atining 19,2 foizga biroz pasayishi esa ishlab chiqarishning ma'lum darajada barqarorlashganini va bozorning nisbiy to'yinish bosqichiga o'tayotganini anglatadi.



Shu bilan birga, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmining o'sishi asosan miqdoriy kengayish hisobiga ta'minlanayotganini ko'rsatadi. Ya'ni, texnologik modernizatsiya, energiya samaradorligini oshirish va mahsulot tannarxini kamaytirish orqali erishilgan sifat o'zgarishlari hali yetarli darajada namoyon bo'lmayapti. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari Namangan viloyatida qurilish ishlari va qurilish materiallari sanoati o'rtasida kuchli funksional bog'liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Qurilish hajmlarining barqaror o'sishi qurilish materiallariga bo'lgan talabni oshirmoqda, biroq ushbu talabni to'liq va samarali qondirish uchun ishlab chiqarishni nafaqat kengaytirish, balki chuqur modernizatsiya qilish zarur. Aynan shu jarayon hududiy iqtisodiyotda qo'shilgan qiymatni oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Bundan tashqari, qurilish ishlari va qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, ular faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishda tarmoqdagi xarajatlarga bog'liq. Bunda, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish tannarxni kamaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. Mahsulot tannarxida xarajatlar tarkibi (%)

Xarajat turi	Ulushi, %
Xomashyo	45
Energiya	22
Mehnat	18
Boshqa	15

manba: muallif ishlanmasi

2-jadvalda qurilish materiallari ishlab chiqarishda mahsulot tannarxining asosiy tarkibiy qismlari va ularning ulushi aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlari ishlab chiqarish jarayonida qaysi resurslar eng katta moliyaviy yukni shakllantirayotganini aniqlash va tannarxni optimallashtirish imkoniyatlarini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, mahsulot tannarxida xomashyo xarajatlari 45 foiz ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu holat qurilish materiallari sanoatining xomashyo talabchan tarmoq ekanligini ko'rsatadi. Xomashyo ulushining yuqoriligi ishlab chiqarish tannarxining asosan xomashyo narxlaridagi tebranishlarga bog'liqligini anglatadi. Bu esa mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, xomashyoni chuqur qayta ishlash va import qilinadigan xomashyo ulushini qisqartirish orqali tannarxni pasaytirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Energiya xarajatlari 22 foiz ulushni tashkil etib, tannarx tarkibida ikkinchi eng yirik komponent hisoblanadi. Bu qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayonlarining energiya sig'imi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Energiya xarajatlarning katta ulushi ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali sezilarli iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Mehnat xarajatlarning 18 foizlik ulushi mehnat resurslarining ishlab chiqarish jarayonidagi ahamiyatini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkich mehnat xarajatlarning nisbatan muvozanatli darajada ekanligini bildiradi. Biroq mehnat unumdorligini oshirish, xodimlar malakasini yuksaltirish va texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish birligiga to'g'ri keladigan mehnat xarajatlari kamaytirish imkoniyati mavjud.

Boshqa xarajatlar 15 foiz ulushni tashkil etib, ular tarkibiga logistika, amortizatsiya, boshqaruv va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Mazkur xarajatlar ulushining sezilarli bo'lishi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va logistika tizimlarini optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, transport-logistika xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali ushbu xarajatlarni qisqartirish mumkin.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha asosiy zaxiralar xomashyo va energiya xarajatlari optimallashtirishda mujassam ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mehnat va boshqa xarajatlarni boshqarish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish mumkin. Mazkur tahlil qurilish materiallari sanoatida modernizatsiya jarayonlarining iqtisodiy jihatdan yuqori ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda Namangan viloyati misolida qurilish materiallari sanoatida modernizatsiya jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning iqtisodiy ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilindi. O'rganish natijalari hududda qurilish ishlari hajmi va qurilish materiallariga bo'lgan talabning izchil oshib borayotganini, biroq ishlab chiqarish quvvatlarining muhim qismi eskirgan texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotganini ko'rsatdi. Bu holat mahsulot tannarxining yuqori bo'lishi, energiya sarfining ortishi va raqobatbardoshlikning cheklanishiga olib kelishi mumkin.



Shuningdek, tadqiqot jarayonida mehnat resurslarining sifati va texnologik yangilanish o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Malakali mutaxassislar yetishmovchiligi va ishlab chiqarish jarayonlarida zamonaviy bilimlarning cheklanganligi modernizatsiya jarayonlarini sekinlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Energiya va xomashyo xarajatlarining mahsulot tannarxidagi yuqori ulushi esa energiya tejankor va resursni tejovchi texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy jihatdan muhimligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Namangan viloyatida qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish hududiy iqtisodiy rivojlanish, qo'shilgan qiymatni oshirish va raqobatbardosh sanoatni shakllantirishning muhim sharti ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Mazkur natijalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

- investitsiyalarni modernizatsiyaga yo'naltirishni kuchaytirish orqali asosiy kapitalga yo'naltirilayotgan investitsiyalar tarkibida texnologik yangilanish, avtomatlashtirish va energiya tejankor uskunalar ulushini oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

- energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish orqali energiya xarajatlarining tannarxdagi yuqori ulushini inobatga olib, zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish zarur. Bu ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

- mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish uchun xomashyoni chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish orqali importga qaramlikni kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va qo'shilgan qiymatni oshirish lozim;

- kadrlar salohiyatini oshirishda qurilish materiallari sanoati uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini rivojlantirish modernizatsiya jarayonlarining samaradorligini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish korxonalari va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish muhimdir.

- institutsional qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish yordamida davlat tomonidan ko'rsatilayotgan soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va subsidiyalarni bevosita modernizatsiya va innovatsion loyihalarga yo'naltirish mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

Hududiy monitoring va baholash tizimini joriy etish bilan modernizatsiya jarayonlari samaradorligini baholash uchun investitsiyalar, energiya sarfi, tannarx va ishlab chiqarish unumdorligini qamrab olgan ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va doimiy monitoring qilish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi Namangan viloyatida qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilishni jadallashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nnadi E.O.E. The Construction Industry and Modernization-Applying Change Concepts. – Global Journal of Researches in Engineering: E Civil And Structural Engineering, Volume 20 Issue 1 Version 1.0 Year 2020.
2. Antonio J., Sánchez-Garrido A systematic literature review on modern methods of construction in building: An integrated approach using machine learning. – Journal of Building Engineering Volume 73, 15 August 2023, 106725.
3. S. Bal, "Next generation building materials for energy efficiency" (Springer, 2025).
4. Mike Scott. Cement: Building a green path in a hard industry. June 11, 2025 1:00 PM GMT+5 Updated June 26, 2025. https://www.reuters.com/sustainability/decarbonizing-industries/cement-hard-industry-crack-down-emissions-2025-06-11/?utm_source=chatgpt.com.
5. Muhtorali Abdurahmonov, Abduvoxidov Suxrob Muhtorali ugli [DEVELOPMENT OF THE BUILDING MATERIALS INDUSTRY IN UZBEKISTAN](https://doi.org/10.47191/jefms/v4-i7-07). *JEFMS Journal*, Volume 04 Issue 07 July, 2021. <https://doi.org/10.47191/jefms/v4-i7-07>.
6. Namangan: Industrial Growth and Thousands of Jobs. A New Stage — Launch of Multi-Billion-Dollar Projects. https://sqb.uz/en/press-center/news-en/namangan-industrial-growth-and-thousands-of-jobs-a-new-stage-launch-of-multi-billion-dollar-projects/?srltid=AfmBOop5oMRI2GZ9z0VJFnYF-upgsU_07BwxR0t42Uib96PDMg_N8gbz&utm_source=chatgpt.com.
7. Xaydarova E'zoza Shukurullaevna QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LI. MENEJMENT VA MARKETING JORNALI, 271-278 betlar. file:///C:/Users/Admin/Downloads/qurilish-materiallari-sanoati-korxonalarining-innovatsion-salohiyatiga-ta-sir-etuvchi-omillardan-samarali-foydalanish-yo-li.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
